



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 3.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MOERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



INGLIZ TILIDA QO'SHMA SO'ZLAR TALQINI

F.I.Allaberganova

tayanch doktorant, UrDU, Urganch

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilida qo'shma so'zlar tabiati va mohiyati haqida fikr-mulohazalar keltirilib o'tiladi. Qo'shma so'z atamasi kengroq tahlil qilinadi. Ingliz tilida qo'shma so'zlarning qanday tuzilishi, ular grammatik modelga qanday integratsiyalashadi va zamonaviy lingvistik yondashuvlar doirasida qanday muammolarni keltirib chiqarishi bobidagi fikr-mulohazalar guruhlariga bo'lib o'rganiladi.

Kalit so'zlar: qo'shma so'z, til birligi, tarif.

Zamonaviy tilshunoslikning turli yo'nalishlarida olib borilayotgan nazariy va amaliy tadqiqotlarda qo'shma so'zlarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Ushbu maqolada, avvalo, qo'shma so'zlarning o'rganilishi bilan bog'liq mavjud qarama-qarshi fikr va mulohazalarni yoritishga urinish qilinadi. Shuningdek, nafaqat qo'shma so'zlarning tuzilishiga doir ilgari surilayotgan farazlarning ilmiy qiziqish uyg'otishi, balki ularning grammatik tizimdagi o'rni va qo'shma so'zlar turli til birliklari orasida hanuzgacha dolzarb muammolardan biri bo'lib qolayotgani atroflicha tahlil qilinadi.

Tilning ichki tuzilishini anglash jarayonida qo'shma so'zlarning tutgan o'rni Grinberg tomonidan alohida ta'kidlangan. Tadqiqotchining fikricha, ehtimol, dunyoda qo'shma so'z yasash va affiksatsiya, ya'ni qo'shimchalar yordamida yangi so'z hosil qilish kabi hodisalarga ega bo'lmagan til mavjud emas. Boshqacha aytganda, mutlaqo izolyatsiyalangan, yakkalangan tillarning mavjudligi amalda deyarli imkonsizdir. Grinbergga ko'ra, ayrim tillarda fleksiya – grammatik shakllanish bo'lmasligi mumkin, biroq qo'shma so'z yasash va derivatsiya jarayonlarisiz til topilishi nihoyatda murakkab [1; B.92]. Garchi yaqin yillarda ayrim tillarda qo'shma so'zlar mavjud emasligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan bo'lsa-da, qo'shma so'zlar hanuzgacha so'z yasashning eng asosiy va faol usullaridan biri bo'lib qolmoqda. Hatto ba'zi tillarda bu yagona so'z yasash usuli hisoblanadi. Quyida yuqoridagi masalalarni yoritishga harakat qilamiz. Jumladan, qo'shma so'zlarning qanday tuzilishi, ular grammatik modelga qanday integratsiyalashadi va zamonaviy lingvistik yondashuvlar doirasida qanday muammolarni keltirib chiqarishi bobidagi fikr-mulohazalarni guruhlariga bo'lib o'rganiladi:

nazariy tilshunoslikda nima sababdan ular bunday katta e'tibor qozonmoqda;

(b) ular grammatik tizimning qaysi bosqichida shakllanadi;

(c) qo'shma so'zning aniq ta'rif;

Qo'shma so'zlar bir qator sabablarga ko'ra tilshunoslikda alohida qiziqish uyg'otuvchi til birliklari hisoblanadi. Avvalo, ular grammatik tuzilmalar orasida o'ziga xos istisno holatni tashkil etadi: ular "so'z" sifatida namoyon bo'ladi, biroq shu bilan birga "ichki sintaksis" unsurlariga ham ega bo'ladi. Qolaversa, bu sintaktik tuzilma ko'rinmas, ya'ni "yashirin" bo'ladi. Misol uchun: taxi driver (taksi haydovchisi), hard ball (qattiq to'p), poet painter (shoir-rassom). Ushbu qo'shma so'zlarni to'g'ri talqin qilish uchun ular tarkibidagi ikki unsur o'rtasida sintaktik bog'liqlikni "qo'shib aytish" talab etiladi (masalan: taksini haydaydigan kishi, qattiq bo'lgan to'p, shoir ham, rassom ham bo'lgan shaxs). Biroq bu "ichki sintaksis" yuzaki darajada, ya'ni grammatik jihatdan ochiq ko'rinishda ifodalanmagan [2; B.105-128]. Bundan tashqari qo'shma so'zlar, shuningdek, tilshunoslikda o'z va ko'chma ma'no kasb etishini inobatga olgan holda quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganiladi:

- a. sintagmatik va paradigmatic munosabatlar;
- b. sintaksis va morfologiya;
- c. lingvistik bilim va pragmatik bilim.

Sintagmatik va paradigmatic munosabatlar bandiga to'xtaladigan bo'lsak, masalan, taxi driver (taksi haydovchisi) kabi qo'shma so'zda nafaqat ikki unsur orasida munosabat mavjud, balki u maxsus turdagi munosabatdir: bu yerda taxi so'zi drive (haydamoq) fe'lining ichki argumenti bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, bu fe'l o'zining semantik jihatdan mos keluvchi argumentini "tanlaydi" – bu holat esa sintagmatik munosabat hisoblanadi. Qo'shma so'z tarkibidagi elementlar o'rtasidagi bog'lanish faqat semantik moslik asosida emas, balki grammatik tanlov (selection) asosida ham yuzaga keladi – bu tilning sintagmatik darajasidagi hodisadir.

Qo'shma so'zlarda ko'zga tashlanadigan sintagmatik munosabatlardan tashqari, ayrim hollarda ular orasida paradigmatic sinf (yoki "qo'shma so'zlar oilasi")ga xos bo'lgan holatlarni ham kuzatish mumkin. Ya'ni, ma'lum bir asosiy unsur (ya'ni, "hokim so'z") boshqa elementlarni o'ziga "jalb qiluvchi" markaz sifatida harakat qiladi va natijada shu bosh so'z asosida bir qator yangi qo'shma so'zlar hosil bo'ladi. Bunday holatni ingliz tilidagi head ('rahbar', 'boshliq') so'zi misolida kuzatish mumkin. Quyidagi misollar bunga

dalildir: 'head of the class' – 'sinf sardori', 'head of the group' – 'guruh rahbari', 'head of school' – 'maktab rahbari', 'head of the line' – 'navbat boshida turgan kishi' / 'yetakchi'. Bu misollardan ko'rinib turibdiki, head so'zi paradigmatic asos sifatida faol ishlatilmoqda va turli semantik kontekstlarda yangi qo'shma so'zlar yasash uchun "tayanch nuqta" vazifasini bajarmoqda.

Endi, sintaksis va morfologiya o'rtasidagi aloqadorlikka to'xtalsak: ilmiy adabiyotlarda ko'p bor ta'kidlanganidek, qo'shma so'zlar morfologik tuzilmalar orasida sintaktik konstruksiyalarga eng yaqin bo'lganlaridandir. Buning oqibatida, ularning aynan grammatik tizimning qaysi bo'limi (morfologiyami yoki sintaksismi) doirasida shakllanishi haqidagi masala tillararo va nazariy jihatdan hamon muhokamada bo'lib kelmoqda [3; B.21-36].

Lingvistik bilim va pragmatik bilim bilan bog'liq ravishda, oddiygina bir misolning o'zi ham yetarli bo'ladi. Jekendof ta'kidlaganidek, "Ba'zi qo'shma so'zlarda ichki sintaktik tuzilmaning mavjudligiga doir dalillar uchraydi" [2; B.105-128], masalan, health and welfare fund (sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot jamg'armasi) kabi birikmada bog'lovchi mavjud bo'lishi bunga misol bo'la oladi. Masalaning mohiyatini tushuntirish uchun bike girl (velosipedli qiz) birikmasi bo'yicha tilshunos keltirgan misolni ko'rib chiqamiz. Ushbu birikmaning "vestibyulga velosiped qoldirib ketgan qiz" degan ma'noga ega ekanini tushunish uchun nafaqat tilshunoslikka oid bilim, balki kontekstual (vaziyatga oid) ma'lumot ham zarur bo'ladi. Aks holda, uni boshqacha talqin qilishimiz ham mumkin: masalan, "ishga doim velosipedda qatnaydigan qiz" degan ma'noda.

Qo'shma so'zlar yasalishi borasida ko'pchilik olimlar turlicha fikr bildirishgan. Qo'shma so'zlar til tizimining qaysi bo'limida hosil bo'ladi? degan savol murakkab bo'lib, bu borada ilgari surilgan yondashuvlar turlicha. Quyida bu boradagi asosiy – lekin to'liq emasligi mumkin bo'lgan – fikrlar ro'yxati keltiriladi:

"Qo'shma so'zlar o'zlashtirish va kalkalash yo'li bilan hosil qilinadi [4; 236 b];

Qo'shma so'zlar morfologik qoidalar asosida, grammatik tizimning maxsus morfologik komponentida hosil qilinadi [5; 237 b];

Qo'shma so'zlar to'liq darajada sintaktik qoidalar orqali hosil qilinadi [6; B.3-9];

Murakkab so'zlar mustaqil morfologik submodulda yaratiladi [7; 306 b].

Yuqoridagi qarashlarni inobatga olgan holda shuni alohida ta'kidlashni istaymizki, morfologik hodisalar grammatik tizim ichidagi morfologik modul yoki submodul tomonidan boshqariladi, degan yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi dalillar mavjud. Bu dalillar quyidagi sohalarga tayanadi:

Psixolingvistika tajribalari shuni ko'rsatadiki, qo'shma so'zlar inson xotirasidagi leksikonda saqlanadi, bu esa ularni sintaktik tizim emas, leksik tizim boshqarishini anglatadi;

Nevrolingvistika afaziya (nutq buzilishlari) bilan bog'liq tadqiqotlar qo'shma so'z yasash qoidalari miya tomonidan qanday qo'llanishini ko'rsatib beradi;

Nazariy tilshunoslik qo'shma so'zlar derivatsiya (so'z yasash) bilan ko'plab o'xshash xususiyatlarga ega – masalan, alloformalar, bog'lovchi elementlar va urg'u, bu esa ularni sintaktik birliklardan ajratib turadi.

Maqolamiz xulosasi deb shu narsani ta'kidlashni istar edikki, yuqoridagi ta'riflardan umumiy xulosa shuki, ko'pchilik takliflarda "qo'shma so'z" tushunchasi uni tashkil qiluvchi birliklar bilan bir xil talqin qilinadi. Biroq bu holat yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, qo'shma so'zlarni tashkil etuvchi asosiy birliklar haqida kelishuv yo'q, chunki turli olimlar turli birliklarni taklif qiladi: ildizlar, asoslar, leksemalar yoki so'zlar. Bundan tashqari, "asos" tushunchasi turli tillarda turlicha aniqlanadi (masalan, ingliz tilida asoslar odatda erkin shakllar, yunon tilida esa bog'langan shakllardir – Ralli, 2007). Shuningdek, ayrim tillarda so'zlar ko'pincha bir morfemadan iborat bo'lsa, boshqalarida ikki yoki undan ortiq morfemadan tashkil topishi mumkin. Ingliz tili lug'at tizimi bag'oyat boy va uning ifoda qudrati nihoyatda kuchlidir. Shu boylik va qudratga o'z hissasini qo'shayotgan va uni muloqotda doimo namoyon qilayotgan leksikologik vositalardan qo'shma so'zlar bundan-da kengroq va bundan-da ilmiyroq o'rganilishni talab qiladi va dunyo sahnasiga shahdam va dadil qadamlar bilan chiqib kelayotgan tilga qiziquvchilar uchun hech qachon katta foydadan holi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Joseph H. Greenberg. Universals of Language. – London: MIT Press, 1963. – P.73-113.
2. Jackendoff Ray. Compounding in the Parallel Architecture and Conceptual Semantics. – Lieber & Štekauer, 2009. – P.105-128.

3. Ackema Peter., Ad Neeleman. The Role of Syntax and Morphology in Compounding. Cross-Disciplinary Issues in Compounding. Amsterdam: John Benjamins, 2010. – 311 p.
4. Lees Robert. The Grammar of English Nominalizations. – Bloomington: Indiana University, 1960.
5. Scalise Sergio. Generative Morphology. – Dordrecht: Foris, 1984.
6. Harley Heidi., Rolf Noyer. Distributed Morphology. Glot International 1999.
7. Ackema Peter., Ad Neeleman. Beyond Morphology: Interface conditions on word formation. – Oxford: Oxford University Press, 2004.

